



ZAMON BILAN HAMNAFASLIK – DAVR TALABI

Shaniyazova Dilafruz Sabirovna

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga

o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va

ta'lif menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri.

E-mail: shaniyazova1983@gmail.com

Telefon: (+99890-720-45-88)

Annotatsiya: ushbu maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlash zarurati, ushbu kadrlarni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash yo'llari va zamonaviy pedagogga qo'yilayotgan eng zarur talablar yoritib berilgan.

O'zgarish – muqarrar, o'sish – ixtiyoriy

Jon Maksvel

Yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol topishida, ularga ilm-fan asoslari va zamonaviy kasb-hunarlarni o'rgatish yo'lidagi ko'p yillik samarali mehnati, ularni Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol avlodni shakllantirishda hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokida o'qituvchi va murabbiylarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeini oshirish yo'lida qator istiqbolli harakatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu soha vakillariga berilayotgan imkoniyatlar jamiyat rivojlanishining muhim asosi sifatida e'tirof etilayotgani ham ayni haqiqat.

Barchaga ma'lumki, yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Qisqa vaqt oralig'ida yangi maktabgacha ta'lif tashkilotlari, umumta'lif maktablari, oliy o'quv yurtlari yangidan barpo etildi, mavjudlari ta'mirlandi. Ular zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlandi. Ta'lif dargohlarida o'quv jarayonlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari joriy etila boshlandi. Elektron darsliklar, video va audio darslar, interfaol va virtual darslar, testlar, interaktiv o'quv o'yinlari ishlab chiqildi va amaliyatga joriy etildi. Shunday ekan, mazkur yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasi o'laroq biz ustoz va murabbiylar har bir yosh avlodni ta'lif olishida faol chora-tadbirlar ko'rishimiz, ularni to'g'ri yo'lga boshlash, yurtimizga bo'lgan muhabbatni ifoda ettira olishimiz zarur.

Bunda zamonaviy pedagog, bitiruvchi yoshlar va ularning yangi ish muhitiga, o'qituvchilikka moslashish jarayoni o'ta muhim sanaladi. Masalan, o'qituvchi bilan bog'liq muhim jihatlardan biri – o'quvchilarda yuz berayotgan o'zgarishlarni aniqlay va to'g'ri baholay olishdir. Afsuski, bugungi kun o'qituvchilar o'z ustida kam ishlayapti. Hukumat tomonidan joriy etilgan toifa olish jarayonlari, ustama belgilash tartibi zamirida ham o'qituvchilarni o'z ustida ishlashlari maqsad qilingan. Albatta, buning



uchun o'qituvchida o'rganish muhiti kerak bo'ladi. Yana bir kamchilik – bugungi kun o'qituvchisida ma'ruza qilish usuli ko'proq. Buni o'zgartirish vaqtি keldi. O'qituvchi dars jarayonida butunlay o'zi emas, balki o'quvchilar bilan birligda ishlash yo'liga o'tishi to'g'ri. Biroq, bizda baholash o'qituvchining quroliga o'xshaydi. Aslida baho o'quvchiga jazo emas, fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan tashxisi bo'lishi kerak.

Darhaqiqat, fikrlardan ma'lum bo'ladiki, aslida ideal o'qituvchi bo'lish, uni shakllantirish oson ish emas. Buning uchun avvalo e'tiborni pedagoglar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalariga qaratish lozim. Shundagina biz xohlayotgan va jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan kelajak avlodlari yetishib chiqadi.

Nega zamonaviy pedagog yangi ish muhitiga moslashishi murakkab? Ho'sh, bunday holatda bir qancha asoslarni keltirish mumkin. Ta'lim katta mashaqqat talab etadigan soha demakdir. Afsuski, yosh bitiruvchilarimiz yaxshi imkoniyatlar berilayotganini ro'kach qilib dars berishga qiziqayotgani ayanchli holat, ammo yana shunday yoshlар borki, hamisha kasbiga sadoqat ila mehnat qilishga intiladi, ustoz sharafiga munosib bo'lishga harakat qiladi. Masalan, talabalar oliy o'quv yurtini tamomlagach, ishga kirish, yangi ishchi muhitida shijoat bilan ishlash haqidagi ishtiyoqi uning yuragida jo'sh urib turadi. G'oyalar va g'aroyib tadqiqotlarni amalga oshirish ilinjida bo'lishadi, universitetda olgan bilimlarini amalda qo'llash haqida rejalar tuza boshlaydi. Ish qidiradi, bir-ikki joydan rad javobini ham olishga ulguradi, shunda soha yetuk mutaxassisdan voz kechgan bo'ladi. Aytmoqchimizki, ko'p yoshlар mutaxassisligi bo'lman yo'nalishlarda ishlayapti, ammo bunday hollarda to'g'ri yo'nalishni belgilab olish darkor. Xullas, yosh pedagoglar huquqiy savodxonligini oshirishi, yoshi ulug' ustozer esa zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ilmini rivojlantirishi ayni davr talabi.

Zamonaviy o'qituvchi bilim va ma'lumot uzatuvchisi emas, balki o'quvchi bilan hamkorlik qiluvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi. U bolalar bilan hamkorlikda ishlashni, shu bilan birga, bolaga dunyo manzarasining yaxlit ekanligini anglashni o'rgatadi. Shuning uchun o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchi quyidagilarga tayyor bo'lishi kerak:

- O'zgarish. Bu eng qiyini, biroq to'laqonli shaxs sifatida mavjud bo'lish uchun zarur bo'lgan shart.

- O'z xatolarini tan olish. Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O'qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq.

- Rivojlanish. Agar jahon sur'ati bir necha avlodlar davomida o'zgarmagan bo'lsa, hozirda u shu qadar tez sur'atlarda rivojlanyaptiki, "Alisa Ko'zgu orti mamlakatida"gi Qora qirolicha aytganidek, o'z joyida qolish uchun "oyoqni qo'lga olib yugurish kerak".

Bundan tashqari, o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar boshqacha ekanini yodda tutishi lozim. Ular internetda yashashmoqda, ularda katta odam madaniyati yo'q. Foyda keltirish va o'z mehnati mahsulidan bahra olish uchun zamonaviy o'qituvchilar quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak:



1. Bolalarga hurmat. Odatda “O'qituvchi bolalarni yaxshi ko'rishi kerak” deyishadi. Biroq bu fikr juda mavhum va turli talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. Axir yaxshi ko'rish tushunchasi juda ko'p qirrali. Hurmat tushunchasi bilan bari oddiy. O'quvchini hurmat qilish – demak, unda oppoq qog'ozni emas, shaxsni ko'rish demakdir.

2. Tolerantlik. Insonlar turlicha. Ba'zida odam o'zgalarga o'xshamaganligi uchun ham g'ashimizni keltiradi: bosh kiyimini boshqa kiyadi, o'zgacha qaraydi. Agar u o'zini tabiiy tutayotgan va axloq-odob qoidalarini buzmayotgan bo'lsa, bunga e'tibor berish kerakmi? Odamning shaxsiy fikrga ega bo'lish huquqi haqida ham shunday deyish mumkin. O'quvchining o'zgacha bo'lish huquqini tan oling. Balki siz yangi Eynshteynni kamol toptirayotgandirsiz.

3. O'qituvchi o'zining xizmat ko'rsatayotganini tushunishi. Nima uchundir bu band ko'plab o'qituvchi va ota-onalarning jahlini chiqaradi. Balki gap obro'dadir. “O'qituvchi” so'zi iftixor bilan jaranglaydi.

4. Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo'lishga tayyor turish. Balandparvoz so'zlar, buyruq ohangi bilan zamonaviy bolada taassurot uyg'ota olmaysiz. Yaxshi o'qituvchi o'z fanini yaxshi biladi, uning foydasini tushuntira oladi va materialni qiziq qilib yetkazadi. Qo'rqtish – befoyda. Hozirgi bolalar avvalgi odamlar qo'rqqan narsalardan hadiksirashmaydi.

5. Chegarani his qilish. Bu ruhiy chegaralarga (“ko'ngilga tegmaslik”) ham, shaxsiy bilimlarga ham tegishli. Axir bolalar ba'zi jihatlarda o'qituvchilarga nisbatan ko'proq narsalardan boxabar.

6. O'z vazifasini tushunish. O'qituvchi “Gugl” qidiruv tizimida topish mumkin bo'limgan foydali bilimlarni berishi kerak (agar aksi bo'lsa, u vaqtini bekorga sarflayapti).

7. O'z-o'zini tanqid qilish. Agar o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haqida o'ylasa, u ko'p narsaga erishadi. Hamma ham adashishi mumkin. Bolalar buni qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

8. O'z-o'ziga shama qilish. Jiddiy bo'lmaslik va o'zini hazil qilish qobiliyati – zo'riqishlarga qarshi turishning tarkibiy qismi. Jamiyatdagi hayot uchun ham a'lo xislat. O'z-o'zini hazil qilish murakkab vaziyatni yumshatib, chalg'ish va qiyin masalalarni hal etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogga xos xislatlarning bariga ega bo'lish ham oson emas. Ko'p hollarda mакtabda o'qituvchilarni tanlab olish imkoniyati mavjud emas. Biroq shunga qaramay, idealga qarab intilish zarur. Har bir pedagog zamon talabiga mos ravishda o'z ustida ishlashi, burchi va mas'uliyatini his etishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr PF-“Ozbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limg-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr “Ta'limg-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4884-sonli Qarori.
3. “Islohotlar va qarorlar” telegram rasmiy kanali.
4. Karimova F. Buyuk kelajak — besh tashabbus//www.bong.uz.
5. Maktab ta'limiini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur//www.uza.uz.